

# **18 noyabr - O'zbekiston Respublikasining "Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan kun**

**2020 18 ноября**



Bayrog'imiz – g'ururimiz, faxrimiz.

Davlat ramzlari hamisha muqaddas va ulug' sanaladi. Chunki u xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida mujassam etgan Vatanning yorqin timsolidir. Bu yil mustaqil O'zbekiston Respublikasining "Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganligiga 29 yil to'ladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrdagi navbatdan tashqari VII sessiyasida tasdiqlangan Davlat bayrog'i – mamlakat davlat suverenitetining ramzi hisoblanib, u yer yuzining shu sarhadlarida mustaqil O'zbekiston davlati borligini anglatadi va o'zida milliy-madaniy an'analarimizni mujassamlashtiradi.

Bugun bayrog'imiz xalqaro maydonda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi rasmiy delegatsiyalarining xorijiy mamlakatlarga safarlari chog'ida, xalqaro tashkilotlarda, konferensiyalarda, jahon ko'rgazmalarida, sport musobaqalarida mustaqil vatanimizni ifodalamoqda.

Bayroqdagi moviy rang – uning ostida barcha millatlar turli xil xavf-xatarlardan xoli, emin-erkin holda ahil-inoq yashab kelayotgan musaffo osmonimiz hamda obi hayot ramzidir. Bayroqdagi oq rang – davlatimiz fuqarolarining o'zaro hamjihatlikda, bir-birini hurmat qilib, diniy bag'rikenglik tamoyillari asosida tinch-totuv yashayotganining timsoli. Yashil rang esa tabiatning yangilanishi hamda

yurtimizning jannatmonand ekanligini anglatadi. Bu rang ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

Qizil chiziqlar davlatimiz farovonligi, jamiyat taraqqiyoti yo'lida o'zaro hamjihatlik bilan hormay-tolmay mehnat qilayotgan yurt farzandlarining vujudida oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir. Navqiron yarim oy va yulduzlar - tarixiy qadriyatlarimiz, umrboqiy an'analarimiz, ma'naviy kuch-qudratimiz bilan bog'liq. Hilol qo'lga kiritilgan mustaqillik, ozodlikni ifodalaydi.

Davlatimiz bayrog'i – o'tmish, bugun va kelajagimizning yorqin timsoli. Yurt bayrog'ini yov qo'liga topshirishni istamagan buyuk vatandoshimiz, yirik tasavvuf olimi, xalq qahramoni va otashnafas shoir Najmiddin Kubro uni qo'lida mahkam tutgancha jon bergen edi. Dushman harchand urinmasin, uning qo'lidan bayroqni tortib ololmay, oxiri panjalari bilan kesib oladi. Tug'ini jonidan ortiq asragan To'maris, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi o'nlab sarkardalar hayoti ham bugun avlodlarimizga katta ibrat. Aslida Vatan bayrog'ini ko'zga surtish, uni to'tiyo qilish Vatanni sevish, uning uchun jonini fido qilishga tayyor bo'lish deganidir.

Zero, Qonunda belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda yashaydigan boshqa shaxslar bayrog'imizni hurmat qilishlari shart. Zero, unda ruhiyatimiz, g'urur va iftixorimiz, Vatanimiz va xalqimizga boo'lgan cheksiz mehr-muhabbatimiz, kelajakka ishonchimiz mujassamdir.